Mamlakatimizda T. Aliboev<sup>[87]</sup>, A. Aripdjanova<sup>[88]</sup>, R. Djuraev<sup>[28]</sup>, G. Ibragimov<sup>[92]</sup>, N. Muslimov<sup>[52,97]</sup>, M. Turdieva<sup>[61]</sup>, Z. Qurbaniyazova<sup>[71]</sup>, L. Qoraeva<sup>[70]</sup>, B. Xodjaev<sup>[65]</sup>, N. Egamberdieva<sup>[69]</sup>, F. Yuzlikaev<sup>[72]</sup>larning tadqiqotlarida talabalarda kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, kreativ tafakkurni shakllantirishning mavjud pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida G. Altshuler<sup>[16]</sup>, R. Granovskaya<sup>[26]</sup>, E.P. Ilin<sup>[41]</sup>, V. Kan-Kalik<sup>[42]</sup>, O.N. Kinyakina<sup>[44]</sup>, A. Matyushkin<sup>[50]</sup>, O. Nikitin<sup>[99]</sup>lar shaxsda kreativlikni rivojlantirish bosqichlarini tadqiq etganlar.

Xorijiy davlatlar olimlaridan G. Gardner<sup>[23]</sup>, J. Gilford<sup>[50]</sup>, A. Maslow<sup>[49]</sup>, Drapeau Patti<sup>[79]</sup>, E. Torrens<sup>[82,83]</sup>, E. de Bono<sup>[29]</sup>, D. Watson<sup>[78]</sup>, J.S. Renzulli<sup>[85]</sup>lar kreativlik tushunchasining ma'naviy mohiyati, psixologik jihatlari tahlil etib, shaxsda kreativlik sifatlarining shakllanganlik hamda rivojlanganlik darajasini tashxislash masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Manba va adabiyotlarning ilmiy tahlili shundan dalolat beradiki, kompetentlik va kompetensiya pedagogik yondashuvning ilmiy-uslubiy mazmuni, ta'riflari va tasniflari, ilmiy qonuniyatlari, shuningdek, zamonaviy shaxs sifatlarini ifodalovchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Biroq talabalarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, shakllari, ta'lim texnologiyalari, samarali metodlar va texnik vositalari ilmiy-metodik va o'quv jihatdan yetarlicha asoslanmagan hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida maxsus joriy etilmagan. Bu esa, o'z navbatida, ilmiy asosda talabalarining kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish tuzilmasini ishlab chiqish orqali o'quv mashg'uloti samaradorligini oshirishning pedagogik imkoniyatlarini amaliyotga kompetensiyaviy yondashuv asosida tatbiq etish zaruratini taqozo etadi.

## TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda adabiyotlar tahlili tizimli, qiyosiy va konseptual yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tahlil jarayonida pedagogika va fan metodologiyasi sohasidagi klassik va zamonaviy ilmiy manbalar, xususan, ta'lim va pedagogik paradigmalariga bag'ishlangan monografiyalar, retsenziyalanadigan ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda xalqaro ta'lim nazariyalariga oid tadqiqot ishlari o'rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Paradigma tushunchasiga aniq va yagona ta'rif hozirgacha to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, bugungi kunda uning taxminan yigirmaga yaqin turlari mavjudligi ta'kidlanmoqda. Ushbu tushuncha qanday izohlovchi funksiyani bajarmoqda? Uning o'rniga yangi tushuncha kiritish kerakmi yoki mavjud tushunchalardan biri bilan almashtirilishi lozimmi? Pedagogika sohasida qo'llanilayotgan paradigmanning o'ziga xos pedagogik mazmuniy xususiyati mavjudmi? Pedagogikaning paradigmasi o'zgaroqdam, agar o'zgarayotgan bo'lsa, bu o'zgarish qanday shaklda kechmoqda? Birinchidan, T.Kun nazariyasiga asoslangan klassik va umumiy ijtimoiy ma'noga yaqin paradigma tushunchasidir. U ilm-fan faoliyatining normalari, mezonlari, tadqiqot standartlari majmuasini aks ettiruvchi model sifatida talqin etiladi.

Ikkinchidan, paradigma – ta'lim tizimini loyihalashdagi yondashuvlar, g'oyalar, asoslar va ta'limning bazaviy yoki strategik modellari sifatida qaraladi. Bu xulosalar, odatda, ta'limning asosiy yo'nalishlarini, pedagogik maqsadlarni belgilash asoslarini ifoda etuvchi "ta'lim paradigmalari" tushunchasi orqali ifoda etiladi<sup>[1, 23-28 bet]</sup>.

Shuningdek, paradigmalarning quyidagi turlari aniqlangan: shakllantiruvchi va gumanistik (Ye.V. Bondarevskaya), shaxsga yo'naltirilgan va ma'naviy (T.I. Vlasova), ilmiy-texnokratik, gumanitar va ezoterik (I.A. Kolesnikova), avtoritar, manipulyativ va qo'llovchi (G.B. Kornetov), an'anaviy-shakllantiruvchi, an'anaviy-rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan (S.V. Kulnevich), an'anaviy, ratsionalistik, gumanistik (V.Ya. Pilipovskaya), ma'naviy-ma'rifiy (I.A. Solovsova), pedagogik, andragogik, akmeologik va kommunikativ (Yu.G. Fokin) va boshqalar<sup>[2, 12-17 b., 3, 98-106 bet]</sup>.

Ushbu matnda paradigma tushunchasining ikki tomonlama (dual) tabiatiga alohida e'tibor qaratilgan. Bir tomondan, u ilmiy tadqiqot faoliyatining asosi, boshqa tomondan esa ta'lim jarayonida qo'llanadigan konseptual asos sifatida qaraladi. Bu ikki vazifa bir-biridan farq qilsa-da, ular o'zaro bog'liq holda qaralishi natijasida paradigma sintetik va integral tushuncha sifatida shakllanadi.

Ye.V. Bondarevskaya, S.V. Kulnevich va I.Ye. Shkabara kabi mualliflar ta'limdagi paradigmani nafaqat nazariy, balki amaliy-pedagogik vazifalarni hal etishga xizmat qiluvchi konsepsiya sifatida ham ko'rishadi. Ular ta'lim sohasida paradigmalarning ko'pligi haqidagi fikrni (ko'pparadigmallilikni) qo'llab-quvvatlaydi va bu holatni pedagogik voqelikning ko'p qirrali jihatlari bilan bog'lashadi. Bu yerda asosiy e'tibor paradigmani faqat ilm-fan sohasida emas, balki ta'lim amaliyotida ham faol qo'llanadigan nazariy asos sifatida ko'rishda namoyon bo'ladi. Shu sababli, ta'limdagi paradigma tushunchasi murakkab, integral, ko'p vazifali va tizimli yondashuvni talab etadi [3, 56-59 bet; 4, 9-13 bet].

Haqiqiy, qimmatli bilim aynan fikrlar va nazariyalar o'rtasidagi intellektual raqobat sharoitida shakllanadi. Biroq, bunday geterogen (turlicha) qarashlarni farqlash uchun umumiy mafkuraviy-mavhumiy til va ilmiy terminologik birlik zarur. Agar asosiy kategoriyalar va tushunchalarga oid hamohanglik bo'lmasa, bu holat fanning tizimli rivojiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, V.V. Kraevskiy, N.L. Korshunova va boshqa bir qator tadqiqotchilarning umumfan sohasida "paradigma" tushunchasini yagona ma'noda ifoda etishga qilgan sa'y-harakatlarini ma'qullash mumkin. Biroq, klassik ilm-fanda paradigмага berilgan ta'rif "normal ilm" doirasida u qadar o'ziga xos evristik (ya'ni, yangilikka olib boruvchi) mazmunga ega emas [6, 109-112 bet; 7, 287-288 bet].

Pedagogikada "paradigma" tushunchasining keng tarqalishi unga qayta va yanada aniqroq ta'rif berish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu tushunchaning pedagogik nutqqa kirib kelishini tasodif yoki ilm-fandagi moda deb talqin etish qiyinchiliklarga olib kelishi aniq. Shu nuqtai nazardan, paradigmani pedagogik jarayonda tan olmaslik yoki uni faqatgina amaliy ta'lim faoliyatida qo'llash samarali yechim emas. Aslida, ushbu tushunchaning ma'no-mohiyatiga jiddiy e'tibor qaratish va uni aynan pedagogikaga xos kontekstda talqin qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu borada paradigma tushunchasini pedagogikaning asosiy obyekti – ta'lim jarayoniga bog'lab, u muayyan miqyosda ilmiy obyektlar singari oldindan belgilangan strukturaga ega ekanini e'tirof etish kerak. Uning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, "paradigma" atamasi yunoncha "paradeigma" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "namunali ko'rinish", "manifestatsiya" (ya'ni, o'zini namoyon etish shakli) ma'nosini anglatadi. Keng ma'noda paradigma – inson tafakkuri va mavjudligining asosiy, fundamental proporsiyalarini shakllantiruvchi, lekin o'zi e'tibordan chetda qoluvchi, to'g'ridan-to'g'ri refleksiya uchun duch kelmaydigan, strukturalashgan reallik sifatida namoyon bo'ladi.

A.G. Duginning ta'kidlashicha, paradigmaning o'zida gnoseologik (bilishga oid) va ontologik (mavjudotga oid) elementlar hali bir-biridan ajralmagan holda mavjud bo'lib, aynan shu xususiyati uning o'ziga xos jihati. Tomas Kunning ta'kidlashicha, paradigma yoki fan sohasiga xos matritsa bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularning ichiga paradigmaning metafizik elementlari ham kiradi; bunda faqatgina gnoseologik emas, balki ontologik jihatlarga ham alohida e'tibor qaratiladi. Shunday ekan, har bir ilmiy paradigma faqatgina tadqiqot vazifalarini hal etish modeliga taalluqli bo'lib qolmay, balki fanning obyektiga oid dunyoqarashlar bilan ham chambarchas bog'liqdir [1, 8, 9, 10].

"Paradigma" tushunchasi bilan bir qatorda zamonaviy fan metodologiyasida unga ma'nodosh va yaqin funksiyalarni bajaruvchi boshqa ilmiy tushunchalar ham mavjud. Jumladan, "tadqiqot dasturining asosi" (I. Lakatos), "ilmiy izlanish an'anasi" (L. Laudan), "fanlar asosiy metaparadigmasi" (N. N. Moiseyev, V. S. Stepin), "tafakkur uslubi" (Ye. N. Knyazeva, V. S. Shviriyov) kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

V. S. Stepinning ta'kidlashicha, fanlarning asosiy metaparadigmasi (yoki fanlar asoslari) ilmiy fanlar tizimining tuzilishi va rivojlanishining boshqaruvchi omili hisoblanadi. U ilmiy bilish jarayonining epistemologik maqsadlarini aniqlovchi, ilmiy izlanishlarning strategik yo'nalishini belgilaydigan hamda global tadqiqot konsepsiyasi sifatida faoliyat yuritadi [12, 481-bet].

Fanlar asosining tarkibiy tuzilishi quyidagi asosiy metodologik komponentlarni o'z ichiga oladi:

- olamning maxsus ilmiy manzarasi (fandosh ontologiya) – muayyan fan sohasining umumiy tasviri bo'lib, uning asosiy tizimli-strukturaviy xususiyatlarini ifoda etadi;
- tadqiqot g'oyalari va normalari (ta'riflash va tushuntirish, dalillash va asoslash, shuningdek, bilimlarni yaratish va tashkil etish g'oyalari) ilmiy bilish usullarining umumiy modelini belgilaydi;
- fanning falsafiy asoslari qabul qilingan olam tasvirini, shuningdek, fanning ideallari va normalarini asoslab beradi.

Bu qarashlar paradigmaning ikki asosiy tarkibiy qismiga – ontologik (fanning obyekti haqida umumlashtirilgan qarashlar) va gnoseologik (ilmiy faoliyat modellari) qismlarga ajratilishini talab qiladi. Haqiqatning tadqiq etilayotgan holatidagi hodisalarni tasvirlash, tushuntirish, loyihalash vazifalari yuklatilgan fundamental fanlar uchun paradigmaning bunday talqini ularning ehtiyojlariga javob beradi. Shu bilan birga, pedagogika faqat ilmiy-nazariy vazifalarni emas, balki konstruktiv-texnik (normativ va regulativ) funksiyalarni ham bajaradi.



Pedagogikadagi paradigma tushunchasini tizimlashtirish maqsadida paradigmalarni ilmiy va ta'limiy deb tasniflash mumkin:

- ilmiy pedagogik paradigma – pedagogik fan va tadqiqotlarning xarakteri, ideallari, normalarini aniqlovchi, shuningdek, pedagogikaning metodologiyasi vazifasini bajaruvchi ontologik va gnoseologik qarashlar majmuasidir;
- ta'limiy paradigma – ta'lim amaliyoti va ta'lim jarayonini loyihalashning aniq usullarini belgilaydigan, pedagogik hamjamiyat tomonidan qabul qilingan dunyoqarash va nazariy asoslar tizimidir.

Klassik olimlarning fikriga tayanadigan bo'lsak, paradigmaning o'zgarishi ular tomonidan ilmiy inqilob yuz berishi yoki fanlar asoslarining qayta tuzilishi bilan izohlangan. Ammo V. S. Stepin fanlar asosidagi qayta tuzilish har doim ham paradigmaning o'zgarishiga olib kelmasligini, balki u jarayon sifatida kechishini ta'kidlaydi.

V. S. Stepin fanlar asosining qayta tuzilishi uchun ikki yo'nalishni ko'rsatadi:

- fan ichidagi bilimlarning rivojlanishi, tadqiqot sohasiga yangi obyektlarning kirib kelishi, ziddiyatlar va muammolarning to'planishi natijasida;
- fanlararo integratsiya orqali, ya'ni bir fan sohasidan ikkinchisiga fandosh ontologiyalar, ilmiy ideallar va tadqiqot normalarining o'tishi orqali <sup>[13]</sup>.

Hozirgi pedagogik tadqiqotlarda ta'lim faoliyatining metodologik, aksiologik (qadriyatlar), gnoseologik (bilish) va antropologik (insonni o'rganish) jihatlari o'z ifodasini topmoqda. Shu bilan birga, pedagogik fanning dinamikasini belgilaydigan asosiy tendensiyalardan biri – insonning umumiy va maxsus bilimlar tizimidagi o'rni hamda uning shaxsiy ehtiyojlari, intilishlari va maqsadlarini hisobga olgan holda ta'lim tizimini qayta shakllantirishdir. Pedagogika va psixologiyadagi tadqiqot ideallarining o'zgarishi zarurligini inobatga olgan holda, ularning har ikkida umumiy tamoyil kuzatiladi: insonga nisbatan qarashlarning o'zgarishi, uni insonparvar nuqtai nazardan baholashga intilish va gumanitar bilish usullarining an'anaviy pozitivistik bilish usullari bilan taqqoslanishi.

“Paradigma” atamasi ilk bor pozitivist G. Bergman tomonidan fan falsafasiga kiritilgan bo'lsa-da, unga keng ma'noda hayot baxsh etgan va amaliyotga joriy etgan olim Tomas Kun hisoblanadi. Tomas Kunning ta'kidlashicha, paradigma bu – butun ilmiy jamoa tomonidan tan olingan va ma'lum vaqt davomida ilmiy jamoalarning masalalarni hal etishdagi asosiy namunasiga aylanadigan ilmiy yutuqlar majmuasidir. Pedagogika terminlar lug'atida paradigmaga quyidagicha ta'rif berilgan:

- ma'lum bir ilmiy sohada muayyan tarixiy bosqichdagi olimlar tomonidan qo'llaniladigan ilmiy yutuqlar (nazariyalar, metodlar) tizimi;
- real voqelikning mohiyatini aks ettiruvchi va tushuntiruvchi mustahkam ilmiy nazariya sifatida shakllangan tushunchalar tizimi;
- ma'lum bir davrda ilmiy jamoa ichida ustuvor bo'lgan tadqiqot metodlari, muammolarni qo'yish va ularni hal qilishdagi konseptual yo'nalish, sxema va modellar tizimi.

Ayrim adabiyotlarda “paradigma” va “metodologiya” tushunchalari birgalikda yoki sinonim sifatida qo'llanadi. Mualliflarning fikriga ko'ra, metodologiya – bu metodlar va bilish prinsiplari haqidagi ta'limot bo'lib, boshqacha aytganda, metodologiya paradigmani aniq fanlarga va ilmiy ta'lim sohalariga tatbiq qilish vositasi bo'lsa, paradigma esa metodologiyani shakllantirishda yo'naltiruvchi, tizimga soluvchi funksiyani bajaradi.

S. Krippnerning ta'rificha, paradigma – bu muayyan jamiyatdagi e'tiqodlar, qadriyatlar, idrok o'zgarishlari, amaliy va ijtimoiy faoliyat yo'nalishlarini o'zida aks ettiruvchi va ushbu jamiyat a'zolarining fikrlash hamda faoliyat tarzini belgilab beruvchi konseptual tizimdir. Uning ta'kidlashicha, paradigma faqat global jamiyat yoki katta sivilizatsion tizimga emas, balki ilmiy tadqiqot guruhlari, akademik jamoalar, maktablar yoki tarbiya muassasalari kabi kichik guruhlarga ham taalluqli bo'lishi mumkin.


Ta'lim paradigmasi – bu ta'lim oluvchilarni madaniy tabiatga mos ravishda metodologik jihatdan asoslangan namunaviy tuzilma orqali ta'lim standartlariga muvofiq ravishda oliy insoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash konsepsiyasidir. Hozirgi kunda quyidagi besh turdagi ta'lim paradigmalari amalda qo'llanilmoqda:

- bixevioristik (behaviourism) paradigma;
- an'anaviy-konservativ (bilimiy paradigma);
- fenomenologik (gumanistik paradigma);

- ratsionalistik paradigma (bixevioristik, xulq-atvorga asoslangan);
- texnokratik paradigma;
- ezoterik paradigma.

Har bir paradigma o'z oldiga quyidagi asosiy savollarga javob izlash vazifasini qo'yadi: yoshlarni qanday tarbiyalaymiz?, nega tarbiyalaymiz? va tarbiyaning maqsadi nima?

Asosiy qadriyatlarini tanlash ta'lim paradigmasini belgilaydi. Paradigmalar mazmuni quyidagi konseptual model orqali ifodalanadi.



1-rasm: Bixevioristik (Behaviourism) paradigmaning metodik yondashuvlari

Ushbu keltirilgan ta'lim paradigmalarning qiyosiy tahlili va boshlang'ich ta'limdagi metodik ahamiyati quyidagicha jadval keltirib o'tilgan (2-jadval).



2-jadval: Ta'lim paradigmalarning mohiyati boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi qiyosiy tahlili

No	Ta'lim paradigmalari	Ta'lim paradigmalarning mohiyati boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi
1	<b>An'anaviy-konservativ paradigma</b>	An'anaviy-konservativ paradigma boshlang'ich ta'limda quyidagi tamoyillarga tayanadi: o'quvchilarga fundamental bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar va tajribalarni shakllantirish; ta'lim mazmuni akademik yo'nalishga ega bo'lib, o'quv dasturlari asosiy fanlar – ona tili, matematika, tabiatshunoslik, tarix kabi sohalarga qaratilgan bo'lishi shart. Boshlang'ich maktabda ta'lim an'anaviy va vaqt sinovidan o'tgan darsliklar, metodikalar asosida tashkil etiladi; boshlang'ich sinflarda bolalarda axloqiy qadriyatlar, masalan, hurmat, odob, insoniylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi xulq-atvor normalarini shakllantirish muhim o'rin tutadi.
2	<b>Texnokratik paradigma</b>	Texnokratik paradigmadagi o'qituvchining shiori: "Kuch – bilimda!" Bu yerda haqiqat mezonini tajriba hisoblanadi. Ta'lim natijalari "ha-yo'q", "biladi-bilmaydi", "o'zlashtirgan-o'zlashtirmagan" kabi aniq shaklda baholanadi. Har doim belgilangan etalon, namuna va normativlar bo'lib, o'quvchining bilim darajasi aynan shu mezonlar asosida baholanadi.
3	<b>Ratsionalistik yoki bixevioristik (xulq-atvor) paradigma</b>	Bixevioristik paradigmaning asosini psixologik yo'nalish tashkil etadi. Bixeviorizm – inson xulq-atvorini tashqi muhit ta'siriga javob sifatida ko'radigan psixologik nazariyadir. Bu yondashuvda insonning ichki hissiyotlaridan ko'ra, tashqi stimularga bo'lgan munosabatga ko'proq e'tibor qaratiladi. Mazkur modelda maktab ta'lim jarayonini bolalarning xulq-atvorini shakllantirish vositasi sifatida qabul qiladi.
4	<b>Gumanistik (fenomenologik) paradigma</b>	Bu paradigmaning asosini rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'zini namoyon etish va ijodkorlik tashkil etadi. Rivojlanish - o'quvchining berilgan topshiriqlarni yechishda faollik va mustaqillikning yuqori bosqichiga ko'tarilishi. V. Vigotskiy ta'limotiga ko'ra, bola rivoji unga beriladigan yordam darajasi bilan belgilanadi. Vigotskiy ikki xil rivojlanish zonasini ajratadi: aktual rivojlanish zonasi - bilim, ko'nikma, malakalarni egallash va ulardan mustaqil foydalanish qobiliyati; yaqin rivojlanish zonasi - bilimlarni o'zlashtirish uchun kattalar yordami talab qilinadigan jarayon.
5	<b>Ezoterik paradigma</b>	"Ezoteriya" atamasi yunon tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda "maxfiy, sirli, yashirin, diniy, mistik va sehrga oid" ma'nolarni anglatadi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq erkin ijod, tasviriy san'at, musiqa, tabiatni kuzatish va ichki his-tuyg'ularni ifodalashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etish; Bolalarda ruhiy barqarorlik, tiniq fikrlash, ezgulik, insoniylik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik kabi fazilatlarni shakllantirish; Bu paradigmadagi ta'limning asosiy maqsadi - bola shaxs sifatida o'zini anglashi, ichki kuchlarini ochishi va oliy ma'naviy kamolotga intilishidir.

Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ta'lim paradigmalarni belgilaydigan asosiy elementlar quyidagilardan iborat:

1. Ma'lum bir tarixiy davrda inson uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar tizimi haqidagi qarashlar;
2. Ma'lumotni kodlash va uzatish prinsiplari;
3. Insonning madaniy rivojlanishini anglash; Jamiyatda ta'limning o'rni va ahamiyati;
4. Ta'lim tizimida o'qituvchining obrazi va mavqei; Bolaning ta'lim, o'qitish va tarbiya tizimidagi roli va maqomi.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini tizimli tahlil qilish natijasida ta'lim paradigmalarning turli jihatlari ta'lim va qadriyat maqsadlaridan kelib chiqib quyidagicha yondashuvlar orqali izohlanishi mumkin.

**1-yondashuv. Qadriyatli (aksiologik).** Bu yondashuvda madaniyat insoniyat hayotining ma'nosi sifatida qabul qilinadi. Madaniyat taraqqiyoti esa madaniyat yutuqlarining namoyoni sifatida talqin etiladi.

**2-yondashuv. Faoliyatli.** Bu yerda madaniyat moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratish faoliyati usullarini sinash va aprotatsiya qilish jarayoni sifatida qaraladi.

**3-yondashuv. Shaxsiy.** Bu konsepsiyaga ko'ra, madaniyat faqat aniq bir shaxsning faoliyati va shaxsiy xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi. Paradigmalar esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro pedagogik munosabatning xarakteri va maqsadi orqali belgilanadi.

Xulosa. Paradigmal yondashuv asosida ta'lim jarayonida o'quvchining individualligi yuqori baholanadi. O'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchi uchun yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va rivojlanishga yordam beruvchi hamroh sifatida ishtirok etadi. Bu sharoit o'quvchilarda mustaqillik, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini baholash kabi shaxsiy kompetensiyalarning shakllanishiga olib keladi.

Shuningdek, bola o'z fikrlarini erkin ifoda etish, tanqidiy va ijodiy tafakkur yuritish hamda mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatiladi. Fenomenologik paradigma o'quvchilarda o'z-o'zini anglash, o'z qadrini bilish va o'z xatti-harakatlari ustida tahlil yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa ularda ichki intizom, maqsad qo'yish, ijtimoiy javobgarlik va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantiradi.

O'qituvchi tomonidan yaratilgan erkin, ochiq va qulay o'quv muhitida o'quvchi o'zining ijodiy salohiyatini to'liq namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv empatiya, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratadi. O'quvchilarga shaxsiy tanlov qilish imkoniyatining berilishi esa ularning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, o'z o'quv faoliyatiga ongli yondashuvini ta'minlaydi hamda tashabbuskorlikni rivojlantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кун Т. Структура научных революций. – М.: АСТ, 2003. – 592 с.
2. Коршунова Н. Л. Нужна ли педагогике новая парадигма // Педагогика. – 2002. – № 7.
3. Краевский В. В. Воспитание или образование? // Педагогика. – 2003. – № 3.
4. Бондаревская Е. В. Гуманистическая парадигма личностно-ориентированного образования // Педагогика. – 1997. – № 4. – С. 11–17.
5. Бондаревская Е. В. Гуманистическая парадигма личностно-ориентированного образования // Педагогика. – 1997. – № 4. – С. 11–17.
6. Власова Т. И. Личностно-ориентированное образование: теория и практика. – М.: Академия, 2001. – 192 с.
7. Колесникова И. А. Парадигмы образования: научно-технократическая, гуманитарная, эзотерическая // Вестник Московского университета. Серия 20: Педагогическое образование. – 2005. – № 1. – С. 3–10.
8. Корнетов Г. Б. Парадигмы образования: авторитарная, манипулятивная, поддерживающая // Педагогика. – 2000. – № 5. – С. 12–18.
9. Кульневич С. В. Педагогика: личность в образовательных парадигмах. – Ростов н/Д: Феникс, 2002. – 320 с.
10. Пилиповская В. Я. Педагогические парадигмы: традиционная, рационалистическая, гуманистическая // Педагогика. – 2004. – № 3. – С. 45–50.
11. Дугин А. Г. Философия традиционализма. – М.: Арктогея, 2002. – 448 с.
12. Лакатос И. Избранные работы по философии и методологии науки / И. Лакатос; под ред. А. А. Ахиезера. – М.: Прогресс, 1980. – 512 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.